

**Slovakiya Standartlar, metrologiya va sinov idorasi
bilan
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi
o‘rtasida
standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash
va muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish
sohasida hamkorlik
to‘g‘risida
ANGILASHUV MEMORANDUMI**

Slovakiya Standartlar, metrologiya va sinov idorasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda alohida “Ishtirokchi” va birgalikda “Ishtirokchilar” deb ataluvchilar);

Slovakiya Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi do‘stlikni inobatga olib, Ishtirokchilar o‘rtasidagi standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida hamkorlikni kengaytirishga intilib,

Iqtisodiy raqobatni va sifatli infratuzilma siyosatini ishlab chiqishni rag‘batlantirish istagida,

Slovakiya Respublikasining Yevropa Ittifoqidagi ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlarini inobatga olib,

Standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida xalqaro hamkorlik jarayonini rag‘batlantirishni maqsad qilgan holda,

Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni maqsad qilgan holda,

Tenglik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslanib,
Quyidagi anglashuvga erishdilar:

**1-bo‘lim
Maqsad**

Mazkur Anglashuv Memorandumining (keyingi o‘rinlarda “Memorandum” deb ataluvchi) maqsadi Ishtirokchilarning standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish istagini bildirish, shuningdek, kelgusi hamkorlik bo‘yicha o‘zaro maqsad va majburiyatlarni tavsiflashdan iborat. Ishtirokchilar o‘rtasida texnik hamkorlik, aloqa va axborot almashishning samarali mexanizmini o‘rnatishni ta‘minlaydi. Ushbu memorandum

doirasidagi muayyan tadbirlar Ishtirokchilar o'rtasida maslahatlashuvlar orqali aniqlanadi.

2-bo'lim **Hamkorlik sohalari**

1. Ishtirokchilarning tegishli qonun hujjatlariga muvofiq va o'z vakolatlari doirasida Ishtirokchilar quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qiladilar:

a) xalqaro miqyosda tan olingan tamoyillarga muvofiq standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tizimlari sohasida hamkorlik qilish;

b) tegishli sohalarda turli xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilish va ushbu tashkilotlar doirasida o'zaro yordamni ta'minlash, masalan, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO), Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) va boshqalar;

c) hamkorlik va bilim almashishni kuchaytirish bo'yicha qo'shma tadbirlarni tashkil etish, masalan, ilmiy-texnik loyihalar, seminarlar, konferensiyalar;

d) milliy sifat infratuzilmasi, shu jumladan standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik;

e) ishtirokchilarning milliy standartlashtirish strategiyalari va jarayonlari bo'yicha imkoniyatlar va o'zaro hamkorlikni aniqlash;

f) ishtirokchilarning laboratoriyalarini metrologiya sohasida kalibrlash va o'lchash imkoniyatlarini kengaytirish uchun xalqaro yoki laboratoriyalar orasida solishtirishlarda ishtirok etishga rag'batlantirish;

g) akkreditatsiyadan o'tkazilgan laboratoriyalarning malaka sinovlari dasturlarida yoki, kerak bo'lganda, laboratoriyalararo solishtirishda ishtirok etishini rag'batlantirish;

h) Ishtirokchilarning xalqaro huquq va majburiyatlari nuqtai nazaridan test natijalari qo'llanilganda o'zaro tan olinishini rag'batlantirish;

i) o'zaro manfaatli sohalarda faoliyat yurituvchi ishchi guruhni tashkil etish;

j) tegishli sohalarda qog'oz yoki elektron tashuvchilar orqali axborot almashish;

k) qonun hujjatlari, shu jumladan standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash bo'yicha ma'lumotlar almashinuvi;

l) texnik ma'lumotlar, ma'lumotnomalar, materiallar va nashrlar almashinuvi;

m) oldindan kelishilgan shartlarda kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish va maslahatlashuvlar o'tkazish uchun mutaxassislar almashinuvi;

n) muvofiqlikni baholash sohasida bilim va axborot almashish;

o) muvofiqlikni baholash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amaldagi qonunchilik, akkreditatsiya sxemasi va Ishtirokchilarni boshqarish tizimi hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni zarur hollarda almashish.

2. Ishtirokchilar ishchi guruh orqali standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash bilan bog'liq o'zaro manfaatli quyidagi yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlantirishlari mumkin:

a) savdoda standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tartib-qoidalari bilan bog'liq ortiqcha to'siqlarni bartaraf etish;

b) ishtirokchilar umumiy manfaatdor masalalarni muhokama qilish va qaror qabul qilish uchun o'z vakillarini taklif qiladilar;

3. Axborot almashinuvi pochta, elektron pochta orqali yoki Ishtirokchilarning rejalashtirilgan uchrashuvlari davomida ingliz tilida olib boriladi. Uchrashuvlar jonli yoki virtual bo'lishi mumkin.

3-bo'lim

Maxfiylik

1. Muayyan ma'lumotlarni uzatish tegishli milliy qonunlar, ayniqsa shaxsiy ma'lumotlar va maxfiy ma'lumotlarni (masalan, biznes sirlari, bank sirlari va boshqalar) himoya qilishni tartibga soluvchi qonunlar bilan taqiqlangan yoki boshqa yo'l bilan Ishtirokchilar manfaatlariga mos kelmasa, Ishtirokchilar bir-biridan ma'lumotni yashirishi mumkin.

2. Basharti ma'lumotni uzatuvchi Ishtirokchi boshqacha ko'rsatmasa, ushbu Memorandum doirasida boshqa Ishtirokchi tomonidan uzatiladigan har qanday ma'lumotlar qat'iy maxfiy saqlanadi.

3. Basharti Ishtirokchilar ma'qullamasa, ushbu Memorandum doirasida olingan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilish taqiqlanadi. Agar uzatilayotgan ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash milliy qonunchilikda maxsus qoidalarga rioya qilishni talab qilsa, uzatuvchi Ishtirokchi qabul qiluvchi Ishtirokchini bu haqda xabardor qilishi kerak.

4-Bo'lim

Moliyalashtirish manbasi

1. Mazkur Memorandum doirasidagi hamkorlik faoliyati ikkala Ishtirokchining mablag'lari va xodimlarining mavjudligiga bog'liq va bog'liq bo'ladi.

2. Ishtirokchilar Memorandumdan kelib chiqadigan har qanday faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni, agar moliyaviy kelishuvlar alohida yozma shaklda muhokama qilinmasa, o'z zimmalariga oladilar. Ishtirokchilar moliyalashtirish shartlarini faoliyat boshlanishidan oldin birgalikda hal qiladilar.

5-bo'lim **O'zgartirish**

Mazkur Memorandumga Ishtirokchilarning o'zaro yozma roziligi asosida bayonnomalar shaklida rasmiylashtiriladigan, Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadigan va ushbu Memorandumning 9-bo'limida nazarda tutilgan qonuniy tartibda kuchga kiradigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

6-bo'lim **Aloqa qiluvchi shaxslar**

Ishtirokchilar ushbu Memorandumni amalga oshirish uchun tayinlangan shaxslarning ismlari va aloqa ma'lumotlarini almashadilar. Aloqa qiluvchi shaxslar bilan bog'liq har qanday o'zgarishlar bo'lsa, ular bir-birlarini xabardor qiladilar.

7-bo'lim **Nizolarni hal qilish**

Mazkur Memorandum xalqaro shartnoma hisoblanmaydi va xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi. Mazkur Memorandumni talqin qilish va amalga oshirishdan kelib chiqadigan har qanday nizolar Ishtirokchilar o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8-bo'lim **Huquqiy ta'siri**

Mazkur Memorandum Ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish maqsadida tuziladi va xalqaro huquq doirasida Ishtirokchilar uchun majburiyat keltirib chiqarmaydi.

9-bo'lim
Kuchga kirish va tugatish

1. Mazkur Memorandum imzolangan sanadan boshlab kuchga kiradi va besh (5) yil davomida amal qiladi. Keyinchalik, bosharti o'zgartirish kiritilmasa yoki tugatilmasa, u o'z-o'zidan keyingi besh (5) yil muddatga uzaytiriladi.

2. Mazkur Memorandum istalgan vaqtda har bir Ishtirokchi tarafidan boshqa Ishtirokchiga kamida olti (6) oy oldin yozma xabarnoma yuborish orqali tugatilishi mumkin.

Toshkent shahrida, 2025 yil 9 iyunda, ikki asl nusxada, har biri slovak, o'zbek va ingliz tillarida imzolandi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega. Talqin qilishda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, ingliz tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

**Slovakiya Standartlar,
metrologiya va sinov idorasi
nomidan**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi
O'zbekiston Texnik jihatdan
tartibga solish agentligi
nomidan**